IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

SPECIAL ISSUE

O‘ZBEK ADABIYOTIDA QAHRAMON AYOLLARNING JASORATLARI

Yusupova Laziza Nodirjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jismoniy madaniyat fakulteti

912-22-guruh talabasi

Anotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek millati tarixidagi ,adabiyotidagi qahramon obrazlarning barhayot jasoratlari,ularning milliy ruhiyatimizni shakllanirishda tutgan beqiyos o‘rni,bugungi kunda sport bellashuvlarida yuqori cho‘qqilarga erishayotgan o‘zbek qizlarining o‘z ajdodlaridan o‘rnak olishlari yoritib berilgan.

Kalit,so’zlar:
Renessans, Sohibqiron, ”Alpomish”dostoni, Sparlagis, Qo‘qon xonligi, To‘maris, axamoniylar, massaget, Gerodot, g‘azal.

Jahon hamjamiyatida o‘zining barqaror o‘rnini egallab,bosqichma-bosqich bir maromda ,yo‘ldan og‘ishmay rivojlanib kelayotgan ona vatanimiz O‘zbekistonning bugungi kunda xalqaro maydondagi imiji oshib bormoqda.Bu esa bizni,butun o‘zbek xalqini shijoatlantiradi.Bizga nima g‘ayrat beradi?O‘zbekistonning sport sohasidagi g‘alabalari bizga g‘urur beradi, ilm-fan sohasidagi aloqalari bizni dunyoga yuzlashyotganimizdan, Xorazmiy,Beruniy,Imom Buxoriy,Ulug‘bek vorislari,Ibn Sino izdoshlari,tomirida Sohibqiron qoni oqayotgan avlodlar ekanligimizni namoyon etadi.Mamlakatimizda Uchinchi Renessans[1] poydevori va yaratuvchilari hisoblanmish yoshlar aynan bugungi asr kelajagining bunyodkorlaridir.Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessansni biz har tomonlama yetuk,barkamol,sog‘lom va yuksak ma’naviyatli ,ilg‘or yoshlar bialn birgalikda quramiz.Yoshlarga oid davlat siyosati esa mamlakatimiz hayotining markaziga aylangan,desak,mubolag‘a bo‘lmaydi.Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek:”Jahonning ilm-fan,madaniyat va sport shohsupalarida bayrog‘imizni baland ko‘tarayotgan o‘g‘il-qizlarimiz ,shijoatli yoshlarimizga yangi-yangi zafarlar tilayman, ular bizning faxrimiz-g‘ururimizdir”

Darhaqiqat ,bugun O‘zbekiston yoshlari har jabhada o‘z iqtidorlarini namoyon etmoqdalar.Xoh sport bo‘lsin,xoh ta’lim,ular doim yetakchi safdadirlar.Ayniqsa,mustaqillikdan so‘ng tarixiy faktlarga nazar tashlar ekanmiz, o‘zbek qizlarining sport sohasida erishayotgan g‘alabalari ko‘zni quvontiradi.Bugungi kunda xotin-qizlarimizning jamiyat hayotida tutgan o‘rni beqiyosdir,mustaqillik baxsh etgan keng imkoniyatlar tufayli ular ham har sohada o‘z salohiyatlarini namoyon etib,ko‘kka bo‘y cho‘zib, rivojlanishda bardavom bo‘lmoqdalar. Jahon arenalarida yurtimiz bayrog‘ini baland ko‘tarilishida,davlatimiz madhiyasi baralla yangrashida ularning ham munosib hissasi bor. Bir so‘z bilan aytadigan bo‘lsak,o‘zbek ayollari ma’lum yillik muayyan sabablarga ko‘ra qo‘yilgan cheklovlardan so‘ng ,o‘zlarining asliyatlariga qaytishdi,o‘zlarining tarixiy ajdodlariga munosib bo‘lishdi,o‘zlarini tom ma’noda qaytadan kashf etib,tomirlarida qanday buyuk siymolarning qoni oqayotgan shaxs ekanliklarini isbotlashdi.Bugun yurtimiz sport tarixida yangi sahifa ochib,boks

bo‘yicha ilk jahon chempioni bo‘lgan Nigina O‘ktamova,Olimpiada o‘yinlarida munosib ishtirok etgan Tursunoy Rahimova ,grossmeyster Nafisa Mo‘minova,taekvondo sporti vakilalari Feruza Sodiqova,Svetlana Osipova,Charos Qayumova kabilarni aytar ekanmiz, ular erishgan muvaffaqiyatlar dovrug‘i dunyoga taralmoqda.Shu o‘rinda ularning suyukli yoridan ajralib,butun boshli davlatni o‘zi boshqarishga kuch topgan,yurtni dushmanlardan mardonavor himoya qilgan ilk turk ayol hukmdor hisoblanmish massaget malikasi To‘marisning,ming yillik tarixiy xazinamiz “Alpomish”ning yetakchi obrazi,mard va dovyurak qiz,xalq og‘zaki ijodidagi,yoinki,o‘zbek xalqi tarixidagi barcha o‘zbek xotin-qizlariga xos samimiylik,qahramonlik ,jasoratni o‘ziga jamlagan Barchinoyning, akasiga qiyin vaziyatda eng munosib yo‘lni ko‘rsatgan,yori uchun ,o‘z or-nomusi uchun kurshishga undagan,Alpomishni biz bilgan qahramonliklariga sabab bo‘lgan zukko va qo‘rqmas Qaldirg‘ochoyimning,Amir Umarxon vafotidan so‘ng Qo‘qon xonligidagi[1] ijtimoiy marakkabliklarga qaramasdan ham farzand tarbiyasi,ham davlat idorasini qo‘lga olgan ma’rifatparvar davlat arbobi,shoira Nodirabegimning qizlari ekanliklarini bilmog‘imiz lozimdir.

Tarixning qora sahifalariga nazar tashlar ekanmiz,shunday buyuk millatimizning mustabidlar tomonidan shavqatsizlarcha istibdod etilganligi hamda osmonlarga bo‘y cho‘zgan milliy g‘ururimizni toptash va azaliy qadriyatlarimizga bolta urishga intilishlar bisyor bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.Hech kimga sir emaski,mustamlakaning izg‘irindek sovuq yillari xalqimiz ruhiyatiga og‘riqli izlar soldi,afsuski.O‘zini “O‘qimishli”sanovchi millat qotillari or-nomusni o‘limdan ustun qo‘yuvchi yigitlarni xorlamoq,o‘zbek ayollarini faqatgina ro‘zg‘or uchun yaratilgan ojiz- notavondek ko‘rsatmoqqa intildilar,shunday hisobladilar,biroq bilmaydilarki,bu elning erkaklari yurti,oilasi uchun har nega tayyor Shiroq,Najmiddin Kubro,Jaloliddi Manguberdi ,ayollari esa jasur To‘maris,qo‘rqmas Barchinoy,matonatli Nodirabegim yanglig‘ ekanliklarini.Darhaqiqat,tarix bizga o‘z ajdodlarimiz to‘g‘risida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etishga,o‘z qa’rida yashiringan sirlarni ulashishga qodir.Biz ham shu xazinaviy ma’lumotlar bag‘riga sho‘ng‘ib,undan dur-u gavharlar yig‘moqqa intildik.Grek tarixchisi Efor o‘z aarlarida shumday ma’lumotlarni qodirgan:”Saklar(Amudaryo va Sirdaryo bo‘yida yashab,istiqomat qilgan qadimgi qabilalar) adolat ko‘chanchilardan chiqan,o‘lja,boylikka berilmaydigan,erkaklar va ayollar o‘rtasida tenglik bo‘lgan,ayollar janglarda erkaklar qatori qatnashgan,hattoki ot ustida turib qayrilgan holda ham kamondam o‘qni nishongatekkiza olishgan”.

Tarixchilarning ma’lum qilishicha,To‘maris milloddan avvalgi to‘rtinchi asrlarda yashagan.Turon[1] xalqlarining axamoniylar[1] bosqiniga qarshi rahbarlik qilgan jasur ayol sarkarda,u massagetlar podshosining xotini bo‘lib, erining vafotidan so‘ng davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga olgan.Erondan kelgan bosqinchilar qo‘shini va massagetlar o‘rtasida shiddatli kurashlar bo‘lgan.Dastlabki jangda malikaning o‘g‘li Spargalis[1] boshchiligida Massagetlar g‘alaba qozonishgan,Biroq keyingi jangda forslar xiyla ishlatib,uni xibsga olishadi.Or-nomusga chiday olmagan Spargalis o‘zini o‘ldiradi.To‘maris,matonatli malika shu vaziyatda ham o‘z farzandining halokatidan esankirab qolmay,o‘z xalqining manfaatini,ozodligini o‘ylab,keying,hal qiluvchi jangga puxta tayyorgarlik ko‘radi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot “Tarix”asarida To‘maris va Kir 2 o‘rtasida bo‘lib o‘tgan ayovsiz jangni quyidagicha tasvirlaydi:”Mening bilishimcha,bu jang varvarlar[1] o‘rtasidagi barcha janglardan ham daxshatli bo‘lgan.Avval har ikki tomon bir-birlarini kamondan o‘qqa tutdilar,kamon o‘qlari tugagach esa, qilich va nayza bilan kurashdilar.Uzoq davom etib,ko‘p qonlar to‘kilgan ushbu jang nihoyasida massagetlar g‘alaba qozodilar.Jang maydonidan Kir 2 jasadi topilgach,malikaning

buyrug‘i bilan uning kesilgan boshi qoni bilan to‘lg‘azilgan meshga solingan”.Keltirilgan ushbu parcha bizga To‘maris ruhiyatidagi ko‘p qirralarni kashf etishga ko‘mak beradi.Faqatgina o‘zbek farzand dog‘idan juda attiq kuyadi,shunday iztiroblar orasida o‘zini elining ozodligi uchun qo‘lga olishdek matonatni faqatgina o‘zbek ayoli uddalashi mumkin.G‘animning kesilgan boshini qonga bo‘ktirish esa bu malikaning dushmanga,zolimga bo‘lgan nafrati,xarakteriga xos kuchli qat’iyatni ifodalaydi.Bugungi kunga qadar To‘marisning jasorati va harbiy-siyosiy mahorati to‘g‘risida xalq dostonlari,jangnoma va rivoyatlar yaratildi.Jumladan,Ibrohim Yusupovning “To‘maris” nomli dostoni,Mirkarim Osimning shu nomli qissasi kitobxonlar qalbidan joy egallagan.E’tiborisi shundaki,o‘zbek ayollari o‘rtasi “To‘maris o‘yinlari”festivalining muntazam o‘tkazilib kelinishi o‘zbek xotin-qizlarining sportdagi g‘alabalari kalitidir.

O‘zbek millatiga xos eng ezgu sifatlar va eng chirkin illatlar mohirlik bilan haqqoniy tasvirlangan,o‘zbek millatining ma’naviy qiyofasini yaqqol ,yorqin bo‘yoqlar bilan,realistik tarzda o‘zida jamlagan “Alpomish”dostoni obrazlari bizga qadim ajdodlarimiz ruhiyatida o‘ziga xos jihatlarni,ularning fe’l-atvori,yashash yo‘li,orzu-armonlari-yu o‘ylari haqida eng sof va qimmatli bo‘lgan ma’lumotlarni ulashadi.Barchamizga ma’lumki,azaldan sharq xalqlarida ayol zotiga hamisha o‘zgacha bir hurmat-ehtirom,qadrlov ko‘rsatilgan.Sababi ota-bobolarimiz ayolga kelajak avlod bunyodkori,xalq onasi,avlodlar tarbiyalovchisi sifatida qarashgan va doim sevib ardoqlashgan.”Alpomish” dostonida ham Barchinoy,Qaldirg‘ochoyim kabi obrazlar orqali bu xususiyatlar yaxshigina ochib berilgan.

Avvalo Boysarining qiziga tanlagan ismiga to‘xtaladigan bo‘lsak,Barchin ismining asosi “bars”, “ilvirs”, “yo‘lbars”degan ma’nolarni anglatadi.O‘zbek elimizda chaqaloqqa biror ism tanlanar ekan,bu uning keyingi hayoti mobaynida hamrohlik qilishini istagan sifatlarga muvofiq tarzda qo‘yiladi.Bundan kelib chiqadiki,yurtning beyi[1] Boysari yakkayu-yolg‘iz qizini hayotda jasoratli,yo‘lbarsdek keskir bo‘lsin deb niyat qiladi.Mana qayerda ekan bugun o‘zbek sporti malikalarining jahon arenalaridagi shiddatli bellashuvlarining asosi.Darhaqiqat bu kabi misollar doston mobaynida ko‘plab uchraydi.Qalmoq elda yeti aka-uka Barchinga sovchi bo‘lib kelib,o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elini mushkul ahvolga solib qo‘yganida o‘zini yo‘qotmay aka-ukalar bilan mardonavor yuzlashgan,hatto birining adabini ham berib qo‘ygan Barchin chinakam alpdir.Shu o‘rinda Barchinning Alpomishga yozgan maktubiga diqqat qaratsak:

“Oltoychilik yo‘lga keldim

Qalmoqning eliga keldim.

Zo‘r yovning qo‘lida qoldim.

Olti oyga muhlat oldim.

Mendan umidi bo‘lsa Alpomish kelsin,

Bo‘lmasa,javobimni bersin”

Barchinoy o‘z holatini,ichki kechinmalarini naqadar mahorat bilan to‘rt misrada ifodalay oldi.Esingizda bo‘lsa,u Alpomish bilan tug‘lilgan vaqtiyoq beshikkerti[1] qilingan edi.Lekin nega xatda men seni sevardim,biz unashtirilgan edik,sen meni yorimsan kabi o‘tinchlar yozilmadi?Sababi

Barchinoy O‘zbek,ha aynan o‘zbek ayoliga xos andisha,g‘urur uni hissiyotga berilmaslikka chorladi.Bu fazilatlar bizga asrlar osha meros bo‘lib kelmoqda.

Kuyovlikka nomzodlar uchun belgilangan poyga,yoy tortish,merganlik hamda kurash shartlaridan ham bilinib turibdiki,qadimdan ona yerlarimizda er yigitlar boyligi,nasl-nasabi uchun emas,balki jismoniy barkamolligi tufayli qadr-qimmat topgan.

Yoy tortshsa,yoyi sinmay qolganga,

Men tegaman shu qirag‘ay meganga,

Men tegaman nor bilakli polvonga.

Shu o‘rinda Alpomishning Barchinoyni qutqarishga undagan,qiyinchiliklarga qaramasdan olti oylik yo‘l bosib o‘tib o‘z yorini g‘amnimlardan xalos etishga chorlagan Qaldirg‘ochoyim so‘z kuchi orqali akasini harakatga keltira olganligi maqtovga loyiq.Sababi Alpomish Barchinning xatiga bildirgan”:Oltoychilik yo‘l bo‘lsa,qalmoqning elida bo‘lsa,zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa,bir xotin olamiz deb sandirab o‘lamizma” qabilidagi gaplaridan g‘azabga minib,akasiga nisbatan:”Mard yigitni yori talash bo‘larmi,Er yigitning yorin qalmoq olarmi?Aka,aytgan so‘zim og‘ir olmagin,Narmoda[1] ishini bunda qilmagin”.aytgan qat’iy gaplaridan so‘nggina Alpomish vaziyatga real baho berib,harakatni boshlaydi.Alpomishni yoriga bo‘lgan muhabbat harakatga keltirmadi,balki,o‘zbek yigitiga xos g‘urur-or uni bunga undadi.Darhaqiqat,shunday axir bu doston butun o‘zbek elining psixologik chizmasi-ku

Og‘ir vaziyatlarda Alpomishni sabr bilan kutib,undan umidini uzmagan,poygada ortda qolayotgan Boychiborga nisbatan aytgan so‘zlari orqali Barchinoyning o‘zbek ayoliga xos sevgi-sadoqati, ojizligi mohir bayon etilgan:

“Egam rahm aylasin qonli yoshima

Sabab bo‘lib qo‘shgin teng-u to‘shima.

Qurriyo –qur,hayt-a to‘ramning oti”

Hal qiluvchi kurash bellashuvida Barchinning Alpomishga bergan daldagiga e’tibor qiling:

“Qizlar sizni narmoda deb aytadi,

Qizlarning aytgani menga botadi.

Mardlar olishmaydi siltab otadi,

Maydon bo‘lsa ish ko‘rsatib ketadi”

Bundan bizga ma’lum bo‘ldiki, qadimdan onalarimiz-buvilarimiz o‘z so‘zlari bilan yoriga ta’sir eta olishgan.Barchinning o‘zi aytganidek:

“Eshon kelsa,chiqar murid naziri,

xotin bo‘lmasmikin elning vaziri.

Er deganning ko‘nglin olmas bo‘lurmi,

aldab-suldab yo‘lga solmas bo‘lurmi?”

Eng yakuniy,eng hal qiluvchi pallada ham Alpomishga eng katta motivatsiyani so‘zlari orqali bergan Barchinoyning qalbida unga nisbatan bo‘lgan taftli ishqi namoyondir.Bu obrazning doston davomidagi har bir harakati,tutgan yo‘li,qabul qilgan qarorlari barcha-barchasi bizga o‘zbek ayoli ruhiyatining eng ko‘z ilg‘amas qirralaridan darak beradi.

Ulug‘ tarixiz zarvaroqlariga nazar tashlar ekanmiz,Nodirabegimning porloq siymosi beixtiyor kishini o‘ziga chorlaydi.Buning boisi shundaki,shoira yorqin adabiyot namoyondasi bo‘libgina qolmay, o‘z davrida davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ham muhim rol o‘ynagan shaxs hisoblanadi.Onasi Oishabegim tarafdan Zahiriddin Muhammad Bobur nasliga mansub, Andijon hokimi Rahmonqulibey oilasida tavallud topgan shoira yoshlikdan Navoiy,Bedil,Jomiy kabi allomalarning she’rlarini o‘qib,ruhan barkamollashib ulg‘ayadi.Yoshligida tarix va adabiyot sohalarida ajoyib ta’lim olib,o‘zbek,fors va tojik tillarini ham mukammal egallagan.Qo‘qon xoni Amir Umar xonning rafiqasi o‘laroq,shoira hayotining katta qismini Qo‘qon saroy amaldorlari orasida,adabiyot shinavandalari va homiylari orasida o‘tkazib,shoir,Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan turmush o‘rtog‘i bilan she’riy aytishuvlarda ishtirok etgan.Bundan ko‘rinib turibdiki,shoira ilm-ma’rifatda o‘z yoridan qolishmaydigan darajada zehnli bo‘lgan.Umar xon 1822-yil vafot etgach esa o‘ttiz yoshida beva qolgan Nodirabegim taxtga chiqqan o‘n to‘rt yoshli o‘g‘liga vasiy hamda davlat ishlaridan yaxshigina xabardor shaxs o‘laroq davlat boshqaruvini o‘z qo‘liga olishga majbur bo‘ladi.Nodiraning ko‘plab mashhur zamondoshlari uning jamiyat hayotida adabiyat va san’at homiysi sifatida ta’riflaydilar. Bu davrda Nodiraning tashbbusi bilan bozorlar,rastalar,masjid va madrasalar,karvonsaroylar bunyod etiladi.Go‘ristoni Kalomdagi madrasayi Chalpak,Taqagarlik rastasidagi Mohlaroyim madrasalari shular jumlasidandir.Hayoti mobaynida adolatparvarlik bilan davlat boshqaruvi va ilm ahliga munosib sharoitlar yaratib berishni birinchi galdagi vazifasi hisoblagan shoira,afsuski,fojeali tarzda fitnalar tufayli vafot etadi.Biroq Nodirabegimning vafo,sadoqat,muhabbat jilvalanib turgan misralari hanuz barhayotdir.Shuningdek,shoira o‘z g‘azallarida go‘zallik va hayoni,sharq xotin-qizlarining orzu-istaklari,oh-u fig‘onlarini kuylaydi.Nodira ijodiyotida yana bir muhim jihat namoyon bo‘ladiki,u ayollar huquqini himoya qilishga intilgan va adolat hamda insoniylikka chaqirgan.Shoira o‘z g‘azallari orqali porloq kelajak haqida orzu qilgan “Baxtimiz quyoshi ko‘tarilib,zulmat zindoni yakun topishi orzusidaman”

Balki Nodirabegim bugungi o‘zbek ayollari,qizlari erishgan hur,ozod va farovon hayotning uchqunlarini o‘z g‘azallari orqali boshlab bergandir.Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki,o‘zbek xalqi bu necha ming yillik tarixga ,o‘zining porloq shaxslariga,nafaqat mardonavor er -yigitlarga balki,xuddi shunday ayollarga ega millatdir va bu millatning kelajagi tarixidan-da buyuk bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”O‘zbek xalq dostonlari” (1956-1957-yil, O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti)

2.”To‘maris” (Mirkarim Osim qissa)

3.”Alpomish talqinlari”(Qozoqboy Yo‘ldoshev)

4.”O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi”(X.Razzoqov,T,Mirzayev,O.Sobirov,K.Ilhomov)

5.O‘zbek xalq og‘zaki dramasi(H.Zaripov,1969-yil)

WORDLY
KNOWLEDGE